

HOZIRGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA YOSHLARI OVOZI

Tojamatova Sarvinoz Rustambek qizi

Andijon davlat universiteti

filologiya (o'zbek tili) fakulteti III bosqich talabasi

Email: sarvinoztojamatova@gmail.com

Diyoraxon Isomiddin qizi Toychiyeva

Andijon Davlat Universiteti

Kimyo ta'lim yo'nalishi

3- bosqich talabasi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6668120>

Annotatsiya. Maqolada yosh ijodkorlarning she'rlaridan namunalar keltirilgan va bugungi yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar haqida yozilgan. Adabiyot, qadriyat va ta'limning o'zaro bog'liqligi izohlangan. Yosh ijodkorlar ijodi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: adabiyot, she'riyat, tahlil, shoir, ruhiyat, yoshlar, rivojlanish, intellektual.

Annotation. The article contains examples of poems by young artists and the opportunities provided to today's youth. The interdependence of literature, values and education is explained. The work of young artists is analyzed.

Keywords: literature, poetry, analysis, poet, psyche, youth, development, intellectual.

Yoshlar-Vatan kelajagi. Barcha asrlarda mamlakat kelajagi yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Taraqqiyot va rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari yoshlar hisoblanadi. Katta avlodning vazifasi yoshlarga o'zlarining munosib o'rnini topishga ko'maklashishdan iborat. Barcha zamonlar va xalqlar tarixida yoshlar har doim asosiy rolni o'ynagan. Bu bejiz emas, chunki ular yuksak fazilatlariga ega – adolat, jasorat, bilimga chanqoq.

Xuddi shunday bilimga chanqoq yoshlarni tarbiyalashda ustozlar mehnati ham cheksiz, buni qadrlashimiz kerak. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir.

Hozirgi yoshlar o'z bilimlarini zamonaviylashtirishga va ularni ruhan yaqinroq yo'nalishga yo'naltirishga qodir. Yoshlarimizning g'ayrat – shijoati, ko'plab masalalarga innavatsion yechimlar, yorqin g'oyalar, o'z maqsadlariga erishish qobiliyati jamiyatimiz tomonidan doimo qo'llav-quvvatlanib kelinmoqda. Yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor mustaqillikning ilk yillaridan qaratildi, desam mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rahbarligida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat,

san'at va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga qaratilgan farmonlari e'lon qilindi.

Bugungi kunda biz yoshlarning ma'naviyatli va bilimli bo'lib yetishishimiz Shavkat Mirziyoyev kun-u tun harakat qilyaptilar. Biz bu harakatlarni har jabhada ko'rishimiz mumkin. Barcha oily ta'limlarda axborot – resurs markazlari ish yuritadi. Biz talabalar bo'sh vaqtimizni maroqli o'tkazishimiz uchun turli hil sport markazlari, kutubxonalar, teatrlar, madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu sharoitlardan keng foydalangan holda biz yoshlar ko'pdan buyon yutuqlarga erishmoqdamiz. O'zbek yoshlari o'z bilimi va shijoati bilan butun dunyoni zabt etmoqda. Sportchilarimiz bilan qancha faxrlansak, shuncha arziydi (Хасаний М, 1994, 23-bet). Vatanimizni rivojlangan davlatlar qatorida turishining o'zi eng oily sharaf. Shoira Mehrinoz Abbosova Vatan koriga yaraydigan yoshlar haqida yozadi:

Mana, men – yoshlikman!

Hech olmasman tin.

Vatan, bir koringga kelar yaragim...

Menga bor dardingni aytishing mumkin,

Bugun jussamdan ham katta yuragim.

Istiqlol sharofati bilan ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratib kelingan bebaho ma'naviy meros, unitilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasi hukumat darajasiga ko'tarildi. Milliy an'ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida bo'lajak yurt avlodini tayyorlashda ularning iqtidori, qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda ezgulikka jalb etish, ma'naviyatini yuksaltirish hamda kasbga yo'naltirishda ustozlarimizdan saboq olamiz.

Kelajakda yaxshi kasb egasi bo'lib, jamiyatga kerakli insonga aylanishimiz darkor. Har bir o'tayotgan daqiqa g'animat. Biz ham kelajakda kimlargadir ustoz bo'lamiz. Ana shunday sharaflı ishga loyiq bo'lishimiz uchun bugundan harakat qilishimiz kerak. Ustozning eng buyuk burchi — yurt ravnaqiga o'zining munosib xissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, fahm-farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat (Rajabov R, 2018, 34-bet). Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning o'zi kasbiy salohiyatli, ma'naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog'lom fikrga ega bo'lmog'i lozim.

Mustaqillik sharofati tufayli yoshlar bilimini yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratildi. Mustaqillikning birinchi yilidan davlat va jamiyat tomonidan yoshlarni mutaxassisliklari bo'yicha mehnat faoliyatlariga jalb qilish muammolariga katta diqqat-e'tibor qaratildi. Jamiyatda turli sohalarda amalga

oshirilayotgan ishlarning tez sur'atlarda rivojlanib borishi har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi, chunki bugungi globallashuv davrida barchasi tezkor amalga oshmoqda.

Yosh qalamkash shoir Asad Jalol dunyo kurashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

Jang qildim abadiy hayot deb,

O, kimlar talashgan dunyoga!!

Iskandar bir umr talashib

Bir o'zi ketgandi samoga....

Jang qildim, dunyo deb, «dunyo»da...

Yoshlar ijodida hayot, muhabbat, ishtiyoq va g'ayrat falsafasi keng ko'lamda aks etmoqda. Biz o'quvchilar ularning dardini, she'riyatning jozibasini his qilmog'imiz darkor.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, yurtimizda biz yoshlarga berilyotgan imkoniyatdan to'g'ri foydalangan holda kuchli, bilimli kadrlar bo'lib yetishishimiz zarur. Zeroki, davlatimiz kelajagi – bu biz bugungi yoshlar. Chunki rivojlangan davlatlarga e'tibor qaratsak bu davlatlar eng avvalo, yoshlarga bilim bergan holda shunday darajaga erishgan. Vatan kelajagi uchun mustahkam poydevor bo'la oladigon munosib farzand bo'lishimiz, oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarimiz tomon mardonavor qadam tashlashimiz, buyuk ajdodlar izi ekanimizni anglamog'imiz, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni, ulug' ajdodlarimiz merosini chuqur o'zlashtirishimiz, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab mustaqil fikrlashimiz va ona vatanimizdagi sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga daxldorlik hissi bilan yashashimiz lozim. Ishonchim komilki, ana shunday noyob, insoniy fazilatlarga boy xalq hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo'rayev N. Tarix falsafasi. -T.: Manaviyat, 1999. –B. 19.
2. Rajabov R., Abuyev H., Qurbonov X. –T.: Yangi asr avlodi, 2018. –B. 163
3. Behbudiy M. va boshq, Odob-axloq kitobi.T.; “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015. 44 b
4. Жўраев А. Майсалар уйғонган тонг. Т.; “O'zbekiston”. 2010.134 b
5. Фаробий. Фозил одамлар шахри. Т.; Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993. 184-185 б
6. Rajabov F. Sundin Mustafo Nurotoi artistic and literary heritage.
7. Ҳасаний М. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони. Т.; “Фан” нашриёти. 1994. 19 б